

YO'LOVCHILARNI SHAHARLARARO TASHISHNI TASHKIL ETISHDA SAMARALI TEXNOLOGIYALARNI ISHLAB CHIQUISH

Umbarov Ibrohim Amonovich

Texnika fanlar doktori, Termiz davlat universiteti, Termiz

E-mail: i_umbarov@mail.ru

Abdimurot Uroqovich Kuziyev

Texnika fanlari nomzodi, dotsent, Termiz davlat universiteti, Termiz

E-mail: abdimurot.qoziyev.67@bk

Mirzayev Alisherjon Shamsutdin o'g'li

2-bosqich magistrant Termiz davlat universiteti, Termiz

E-mail: ali2016sher2016@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur tadqiqot ishida transport sohasining yo'lovchilarga ko'rsatayotgan barcha ishlab chiqarish samaradorligi ta'siri o'rganildi, uni oshirish ortiqcha vaqtlarni kamaytirish yuzasidan fikir yuritildi, xususan, buyurtma qilish, tashish, va transport vositalari kabi tovar harakatining muhim elementlariga bog'liq masalalari ko'rib chiqildi. Transport sohasida duch kelayotgan muamolar tahlil etildi. Yo'lovchilarni shaharlararo tashishda yangi texnologiyalardan foydalanish va ularni samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar berildi.

Kalit so'zlar: transport, yo'lovchilar, dispetcher, tashishni tashkil etish.

Kirish Barcha sohalar qatori transport tizimlari sohasi ham bugungi kunda yangi rivojlanish pallasiga kirmoqda. Ayniqsa, logistika tarmog'ining jadal sur'atlar bilan sohaga integratsiyalanuv jarayoni dolzarb vazifalar qatorida e'tirof etilmoqda. Bu esa insoniyatga xizmat qiluvchi barcha tarmoqlardagi faoliyatlar bilan bog'liq tadqiqot ishlarining nazariy ham amaliy tadbiqini nazarda tutmoqda. Transport logistikasi tarmog'i butun dunyoda har doim ahamiyatli bo'lgan va bu esa boshqa sohalarning taraqqiyotiga ham bevosita va bilvosita ta'sir etmay qolmaydi. Zero, bugungi davrdagi hayotning o'zi buni ko'rsatib turibdi.

Mamlakatimiz aholi soni so'nggi 10 yilda 1,19 baravarga yoki 5 mln.dan ko'proqqa oshdi, har ming aholiga 80 dan ortiq avtomobil to'g'ri kelmoqda¹. Avtomobillar sonining ko'payishi, boz ustiga, jamoat transporti yo'nalish tarmoqlari shu vaqtga qadar mukammal tarzda qayta ko'rib chiqilmagani, oqibatda shahar jamoat transporti tizimida bir qancha muammolar yig'ilib qolgani mavjud vaziyatni tobora murakkablashtirmoqda. Bu esa masala yuzasidan jiddiy bosh qotirish lozimligini taqozo etmoqda [2].


¹ Stat.uz

Tadqiqot metodologiyasi: Hozirgi vaqtda O‘zbekistonda yo‘lovchilar shaharlar ichida, shahar atrofida va shaharlararo avtotransportlarda harakatlanadilar. Shaharlar va shaharchaloro hududlarda yo‘lovchi tashishga bo‘lgan talabni qondirishda avtomobil transporti muhim rol o‘ynaydi [3]. Surxondaro viloyati aholisining yo‘lovchi transportiga bo‘lgan ehtiyojini qondirish va ularga ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish, Shuningdek, yo‘lovchilarning manzillariga o‘z vaqtida yetib borishlarini ta‘minlash maqsadida tadqiqot ishi davomida osonelt deb nomlangan yangi veb sayt hamda telegram bot ishlab chiqildi.

Tadqiqot ishida ishlab chiqilgan taklif va g‘oyalar amaliyotda qo‘llanilsa, yo‘lovchilar kunning istalgan vaqtida uylaridan chiqmagan holda buyurtma berish imkoniyatiga ega bo‘ladilar va buyurtma berish davomida qisqa fursatda o‘zlariga kerakli yo‘nalishli taxilarning soni, mavjud avtotransportlarning rusumi, belgilangan narxi, mavjud yo‘lovchilar soni haqida ma‘lumotga ega bo‘ladilar, shuningdek, oldindan buyurtma qilish va qulay to‘lovlarni amalga oshirish imkoniyatiga ham ega bo‘ladilar.

Adabiyotlar sharhi: Yo‘lovchilar tashishni to‘g‘ri tashkil etish aholining turmush darajasini belgilovchi ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi [4].


Keltirilgan ilmiy ishlarda jamoat transportida xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish masalalarini hal qilishning bir qancha modellari va usullarini keltirganlar. Lekin, mazkur masalaga oid hududiy masalalar yoritilmagan. Masalan, o‘rganilayotgan hududning transportli ta‘minlanganligi, transport tarmog‘i zichligi, yo‘lovchilarning manziliga yetib borishidagi boshqa transportga qayta chiqishlari, yo‘lovchining bektgacha kelish va transportda yurishiga vaqt sarfi shu kabi muhim holatlar tahlil etilmagan.



1.1-rasm. Osonelt telegram botining buyurtma berish jarayoni.

Mijoz telegram ilovasiga kirib “Osonelt_bot” orqali buyurtma qilganidan so‘ng maxsus dispatcher buyurtmani qabul qiladi va haydovchiga yo‘lovchining geo joylashuvi (lokatsiyasi) tog‘risida ma’lumot beradi. Belgilangan mijozlar soni to‘lgach dispatcher darhol yo‘lovchiga jo‘nash vaqti yetib kelgani haqida ogohlantiradi va haydovchi yo‘lovchini o‘z manzilidan olib ketadi. Yo‘lovchilarni manzillariga o‘z vaqtida yetib borishlari va behuda vaqt sarflamaslikni oldini uchun, mijozlarga yo‘l kira haqqini o‘zlari istagan turda naqd yoki botning o‘zida Click hamda Paymee kabi ilovalar orqali amalga oshirish imkoniyati ham yaratilgan. “Osonelt” dan foydalanish orqali yo‘lovchi manziliga o‘z vaqtida yetib boradi, ortiqcha vaqt sarflamaydi. “Osonelt” eng avvalo aholi ehtiyojlariga shuningdek, haydovchilarning ham manfaatlariga xizmat qiladi. Dasturni tayyorlashdan maqsad viloyatdagi aholiga yo‘lovchi tashish bilan xizmat ko‘rsatish holatini yaxshilash va xizmat ko‘rsatish madaniyatini oshirishdan iborat.

Tahlil va natijalar muhokamasi: Sinov tadqiqoti sifatida yo‘lovchining Termiz shahar 5-kichik daha “Alpomish” mahallasi, Navbahor ko‘chasi 1-uydan Boysun tumaniga yetib borguncha sarflaydigan vaqti o‘rganilib tahlil qilindi. Dastlab yo‘lovchining uyidan Termiz Avtoshohbekatigacha kelishda sarflaydigan vaqtini aniqlash bo‘yicha amaliy tajriba o‘tkazildi. Yo‘lovchining o‘z manziliga yetib olishdagi piyoda sifatidagi harakati “Google Карты” hamda yo‘lovchi sifatida transportdagi harakati ko‘rsatkichlari zamonaviy “Geo Tracker” dasturi asosida amalga oshirildi. Bunda yo‘lovchi Termiz shahar 7-sonli avtobus yo‘nalishlari sxemasi bo‘yicha harakatlandi. Yo‘lovchining uyidan jamoat transporti bekatigacha piyoda harakatlanadigan masofasi “Google xarita” orqali o‘lchanganda 350 metr masofani tashkil etdi va bunda yo‘lovchi avtobus bekatigacha yetib borish uchun 4 daqiqa sarfladi. Yo‘lovchining bekatda avtobusni kutishga sarflaydigan vaqtiga turli omillar ta’sir etadi. Sinov paytida yo‘lovchi avtobusni kutishga 6 daqiqa 35 soniya vaqt sarfladi. Yo‘lovchining transportdagi qatnovini “Geo tracker” ilovasi orqali hisoblab chiqilganda avtobusning harakat vaqti va oraliq bekatlardagi sarflagan vaqti jami 20 daqiqa 15 soniyani tashkil etdi (1.2-rasm). Yo‘lovchi Boysun tumaniga borishi kerakligi tufayli Avto- shohbekatdagi mavjud



1.2-rasm. “Geo Tracker” dasturida yo‘lovchining Avtoshohbekatgacha sarflagan vaqti

yo‘nalishli taksilarni qidirishga va haydovchilar bilan narxlarni muzokara qilishga 10 daqiqa sarfladi. Bundan tashqari belgilangan yo‘lovchilar miqdori to‘lishini kutish uchun ham 20 daqiqa sarflab, so‘ngra asosiy manziliga yo‘lga chiqdi.

Yo‘lovchi Boysun tumaniga 2 soatda yetib bordi. Yo‘lovchining o‘z manziliga yetib borish uchun sarflagan vaqti (umumiy 3 soat 2 daqiqa 50 soniya)ni tashkil etdi. Agar yo‘lovchi ilmiy tadqiqot davomida yaratilgan telegram ilovasidagi Osonelt_bot xizmati yoki Osonelt saytidan foydalansa, yo‘lovchi uyidan chiqmagan holda o‘zi uchun qulay deb

bilgan avtotransport vositasini tanlaydi va bu orqali uyidan bekatgacha piyoda bosib o‘tishi kerak bo‘lgan masofani, Avtobusning bekatgacha kelish vaqtini kutishni, Jamoat transportining harakat davomida bekatlarga to‘xtab behuda vaqt sarflashini, shuningdek, Avoshoh- bekatda kerakli yo‘nalishdagi haydovchilarni qidirish va ular bilan muzokaralar o‘tkazishga ketadigan behuda vaqtlarni oldini oladi va quyidagi (1.1-jadval) natijaga erishadi:

1.1-Jadval

Ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi	Odatiy	Osonelt bilan
Yo‘lovchining uyidan jamoat transporti bekatigacha piyoda harakatlanishga sarflagan vaqti	minut	4	0
Yo‘lovchining bekatda avtobusni kutishga sarflaydigan vaqti	minut	6,35	0
Yo‘lovchining avtoshohbekatgacha transportdagi qatnov vaqti	minut	20,15	7
Yo‘nalishli taksilarni qidirishga va haydovchilar bilan narxlarni muzokara qilishga sarflagan vaqti	minut	10	1
Belgilangan yo‘lovchilar miqdori to‘lishini kutish uchun sarflagan vaqti	minut	20	0
Asosiy manzilga yetib borish uchun sarflagan vaqti	minut	120	120
Jami:	minut	180,50	128

Yo'lovchi odatiy holda harkatlanganda 180 daqiqa 50 soniya vaqt sarfladi va bu (3 soat 50 soniyani) tashkil etmoqda, Osonelt xizmatidan foydalangan holatida 128 daqiqada (2 soat 8 daqiqa)da manziliga yetib bordi va u odatdagidan 52 daqiqa 50 soniya vaqtni tejab manziliga ertaroq yetib bordi.

Xulosa va takliflar: Ushbu tadqiqot ishi yo'lovchilarni avtovokzalga tashrifini, haydovchilarni qidirishni, behuda kutishlarni, va narxlarni belgilash bo'yicha uzoq munozaralarni o'rnini bosadigan ko'plab xizmatlarni o'z ichiga oladi. Jumladan, yo'lovchilar uydan chiqmagan holatda bugungi qatnovar soni, avtomobil turi, belgilangan narxi, oldindan band qilish va mavjud yo'lovchilar soni kuzatish imkoniyati, bekatdan emas, balki uylaridan jo'nab ketish imkoniyati, qulay usulda to'lov (naqd va naqdsiz mablag'lar), kun yoki tunning istalgan vaqtida pochta xabarlarini yuborish va qabul qilish va boshqa ko'pkina qulayliklarga ega bo'ladilar.

Adabiyotlar:

1. www.stat.uz
2. www.kun.uz
3. Abdullayev B.I., Luqmonov M.M., Karimov F.Z., Mirzayev A.Sh. Yo'lovchilarning manzillariga o'z vaqtida yetib borishlarini ta'minlash masalalari // "Barqaror transport tizimlari – barqaror iqtisodiyot uchun" xalqaro ilmiy-texnik anjuman 2022-yil
4. И.В. Спирин, (2006) Перевозки пассажиров городским транспортом: Справочное пособие для специалистов / И.В. Спирин. – М.: ИКЦ «Академкнига», 413 с
5. Kuziev A.U, Suyunov O.D. Issuing the Plan for the Development of the Automobile Road Network. International Journal of Inclusive and Sustainable Education Volume 1 | No 5 | Nov-2022 Page 195-200. <http://go.microsoft.com/fwlink/p/?LinkId=255141>
6. Kuziev A.U, Mirzayev A.Sh., Xolboyev Sh.K. Improvement of quality indicators of public transport services. International bulletin of engineering and technology. Volume 2, Issue 12 December Page 79-84